TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUVNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Haytbayeva Sayyora Raximberganovna
Toshkent shahar Chilonzor tumani
178-IDUM biologiya fani o'qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga kompetensiyaviy yondoshuv asosida umumiy o'rta ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalar qatoriga kiritilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o'rganishga e'tiborni qaratish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan [1].

Hozirgi kunda ta'limga kompetentlik va kompetensiyaviy yondashuv kabi tushunchalar, ularning mazmuni va mohiyatiga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, kompetensiya, kompetentlik ta'limda ko'p qismli, barcha fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Shuning uchun uning talqin va izohlari, mazmun va mohiyatiga turli xil yondoshuvlar mavjud. Ushbu tushunchalarning asl mohiyati "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor", "o'lchov" kabi mazmunlarni aks ettiradi. Qisqacha qilib aytganda, "kompetentlik – aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik xususiyatidir" [2].

Demak, o'quvchining kompetensiyasi – o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim- o'quvchilarga egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishni shakllantirishda yo'naltirilgan ta'limdir. Xulosa qilib,demak umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatidi o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim [3].

Demak, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan ma'lumotlarni hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy (predmetli) kompetensiyalar; xususiy kompetensiyalar. O’quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o’quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta’lim, umumta’lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo’g’inlaridagi o’zgarishlarga ta’siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta’lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo’naltirilgan, ijtimoiy va ma’lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O’qituvchilarning kompetentligini oshirishning o’quv-metodik ta’minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg’ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo’naltirilgan fanlarni o’qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog’liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg’ulotlar asosida o’qitish ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [4].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol, yetuk, yuqori kompetentlikka ega shaxslar etib tarbiyalash porloq kelajagimizni qurishda katta ahmiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. Xutorskoy A.V. (2012).Texnologiya proektirovaniya klyuchevыx i predmetnыx kompetensiy. eidos.ru›journal.
3. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. “Education, Science and Innovation,” 2 (2), 45-50.
4. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.